

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ILYASOV BAXTIYAR XABIPNAZAROVICH

**14-15 YOSHLI ERKIN USULDA QISQA MASOFAGA
SUZUVCHILARNING MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq–2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Pyasov Baxtiyar Xabipnazarovich

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish 3

Ильясов Бахтияр Хабибназарович

Совершенствование специальной физической подготовленности пловцов 14-15 лет на короткие дистанции вольным стилем..... 25

Pyasov Bakhtiyar Khabipnazarovich

Improving the special physical training of short-distance freestyle swimmers aged 14-15 47

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 51

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ILYASOV BAXTIYAR XABIPNAZAROVICH

14-15 YOSHLI ERKIN USULDA QISQA MASOFAGA
SUZUVCHILARNING MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PHD/Ped3239 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzdjtsu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Matnazarov Xayrulla Yuldashovich**
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Kochkarov Atabek Axmatvayevich**
pedagogika fanlar doktori (DSc), dotsent
Zoitova Gulnoza Miryunusovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashining 2024 yil “_____” _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurgchilar ko‘chasi, 15 uy. Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27; faks: (0-370) 717-17-76; veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Madaniyat saroyi”, 3-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19 uy.) Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27; faks.: (0-370) 717-17-76

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «_____» _____ kuni tarqatilgan.
(2024 yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Kerimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

X.X.Qurbonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi
p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish xususan, suzish sport turini ommaviylikni oshirish asosida salomatlikni tiklash va mustahkamlash, malakali sportchilar uchun zahira tizimining boyib borishini ta'minlab berishi kabi tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda suzuvchilarni tayyorlashga bo'lgan yangi yondashuvlar asosida takomillashtirilgan uslubiyatlarni ishlab chiqish hamda shu orqali ta'lim jarayonini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu jarayonda asosiy e'tiborni yosh suzuvchilarning barcha tayyorgarlik bosqichlarida birlamchi bo'lgan jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, ularning maxsus jismoniy tayyorgarligini zamonaviy uslub va dasturlar asosida takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Jahonda suzish bilan shug'ullanuvchilar sonining oshib borayotganligi soha olimlari tomonidan yangi ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirishda yosh suzuvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini rivojlantirish, morfofunktsional holatni baholash uslubiyatini ishlab chiqish, koordinatsion qobiliyatlarni mustahkamlash, mashg'ulotlar jarayonining psixofiziologik asoslarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda suzuvchilarning barcha toifalari uchun jismoniy tayyorgarlik jarayonini tashkil qilish va yillik mashg'ulotlar siklini takomillashtirish hamda erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan alohida uslubiyatlarni ishlab chiqish tizimi yetarlicha ochib berilmagan. Ushbu holat erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan metodologiyalarni ishlab chiqishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish orqali aholi salomatligini mustahkamlash hamda yuqori malakali sport mutaxassislarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, suv sporti turlarini rivojlantirishda yuksak mahoratli sportchi hamda trenerlarni tayyorlash va seleksiya ishlarini yo'lga qo'yish asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bunda "sport ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning innovatsion usullarini takomillashtirish va qo'llash orqali bolalar va o'smirlarni jismoniy tarbiya hamda ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish"¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Yosh suzuvchilarni tayyorlash bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish, yosh suzuvchilarni saralash uslubiyatini takomillashtirish, kuch tayyorgarligini rivojlantirish, suzish usullariga o'rgatish tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan chora tadbirlar olib borilmoqda. Ushbu belgilab o'tilgan muammolarni tizimli amalga oshirish uchun yosh erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyati bilan bog'liq tadqiqotlarni olib borishda zamonaviy ilmiy yondoshuvlarni izlab topish va amaliyotga tadbiriq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmoni. Lex.uz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5281-son “Parij shahrida (Fransiya) 2024-yil bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son “Sport ta‘lim muassasalari faoliyatini 2025 yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi 333-sonli “Suzish sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz va xorijda suzuvchi sportchilarni tayyorlash, ularning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirish hamda jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish borasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Sportchilarda yetarli darajada har tomonlama jismoniy tayyorgarlikka erishish ko‘p jihatdan trenirovka vositalari va uslublarining oqilona tanlanishi, ko‘p yillik mashg‘ulotlar jarayonida umumiy va maxsus tayyorgarlikning optimal nisbatlariga bog‘liqligi, umumiy jismoniy tayyorgarlik sportchining sport turiga ixtisoslashish jarayoniga bilvosita ta‘sir qiluvchi, maxsus jismoniy tayyorgarlik esa sport ixtisosligiga ta‘sir qiluvchi muhim omil ekanligi shuningdek, yosh sportchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlik samaradorligini oshirish zahiralarni qidirish va shu bilan birga mashg‘ulot jarayonida yangicha usul, uslublardan foydalanish yuqori natijalarga olib kelishi barobarida, yosh suzuvchilarning dastlabki ixtisoslik bosqichiga saralash samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, tayyorgarlik bosqichlari uchun mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish, koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, suzish usullariga o‘rgatishda yuklamalarni tartibga solish uslubiyatlarini qo‘llashga bo‘yicha F.A.Kerimov, Sh.X.Xankeldiyev, R.S.Salamov, A.G.Sadikov, X.Yu.Matnazarov, B.F.Ikromov, G.M.Zoitova, B.A.Ishimov, I.M.Mambetnazarov kabi mahalliy olimlar izlanishlar olib borgan ².

² Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Дарслик. Т.ЎзДЖТСУ нашриёти, 2005. – 73 б.; Ханкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти. Дарслик. Т.ЎзДЖТСУ нашриёти, 2005. – 213 б.; Саламов Р.С. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. Дарслик. Т.ИТА-PRESS, 2014. 256-б.; Содиков А.Г. Ёш сузувчиларнинг тайёргарлик босқичларидаги машғулот юкламаларини режалаштириш. Ўқув қўлланма Т.:«Фан ва технология» 2015.–. 200 б.; Матназаров Х.Ю. Ёш сузувчиларни дастлабки ихтисослик босқичида саралаш услубиятини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.. автореф.- Чирчик, ЎзДЖТСУ, 2021.-59 б.; Икромов Б.Ф. Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи эшкакчи байдаркачиларнинг мувозанат турғунлигини инновацион восита ва усуллар ёрдамида ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс автореф.- Чирчик ЎзДЖТСУ, 2022.-54 б.; Зоитова Г.М. Мактабгача ёшдаги болаларга сузиш усулларини ўргатишнинг модуль тузилиши. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс автореф.- Чирчик ЎзДЖТСУ, 2022.-60 б.; Ишимов Б.А. 13-14 Ёшли брасс усулида сузувчиларнинг куч тайёргарлигини ривожлантириш самарадорлиги. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф.- ЧирчикЎзДЖТСУ, 2022.-62 б.; Мамбетназаров И.М. Академик эшкак эшишда жамоавий

Mustaqil davlat hamdo'stligi olimlari ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyati sport takomillashuv bosqichidagi suzuvchilarni tayyorlashga va suzish uslubiyatini ishlab chiqishga qaratilgan. Xususan, V.N.Platonov, V.A.Baranov, Ye.A.Mextelevalar suzuvchi sportchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda saralash ishlarini tashkil qilish, dastlabki mashg'ulotlar bosqichidan boshlab suzuvchilarni tayyorlash jarayonining metodologiyasini ishlab chiqish yuzasidan fundamental tadqiqot ishlarini tashkil qilgan³.

Xorij olimlarining ilmiy-uslubiy adabiyotlarini tahlil qilish, erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyatini yetarlicha ishlab chiqilmaganligini ko'rsatdi: J.Hoff, L.Englan, O.Kemi, H.Toussaint, T.Little, A.Williams, E.Crowleylar suvda o'ziga xos yuqori qarshilik ko'rsatuvchi mashqlarning suzuvchilarga ta'siri yuqori bo'ladi va suzish ko'rsatkichlari oshib boradi deb hisoblashgan⁴.

Suzuvchi sportchilarni tayyorlash bo'yicha respublikamiz va chet el olimlarini olib borgan ilmiy izlanishlarini tahlil qilish, 14-15-yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan hamda tajribada sinalgan samarador uslubiya ishlab chiqishni talab qiladi va dolzarb muammo ekanligini ko'rsatdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi V-1-28 "Respublikadagi sport ta'lim muassasalarda suv sporti va eshkak eshish turlari bo'yicha tarbiyalanuvchi yoshlarning tayyorgarlik tizimini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jismoniy mashqlar orqali 14-15 yoshdagi erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

erkin usulda qisqa masofaga suzuvchi 14-15 yoshli suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantiruvchi mashg'ulot tuzilmasini ishlab chiqish;

14-15 yoshli suzuvchilarning quruqlikda va suvda bajariladigan mashqlarini bajarish imkoniyatini optimallashtirish;

14-15 yoshli suzuvchilarning suvdagi texnik harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan murakkab reaksiya harakatlarini ishlab chiqish;

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning psixologik va funksional holatlarini muvofiqlashtiruvchi uslubiya takomillashtirish.

кайикларга экипажларни шакллантириш услубиятини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс автореф.- Чирчик ЎзДЖТСУ, 2023.-61 б.

³ Платонов В.Н. Плавание//Учебник для студентов вузов физического воспитания и спорта / Киев: Олимпийская литература, 2000.; Баранов В.А. Методика учебно-тренировочного процесса пловцов на этапе начальной подготовки на основе дифференцированного подхода. автореферат...канд.пед.наук.-Тамбов: 2012. -23 с.; Мехтелева Е.А. Специальная подготовленность пловцов 10 - 17 лет, специализирующихся в способе плавания брасс. автореферат...канд.пед.наук.-Москва: 2005 -28 с.

⁴ Hoff J, L.Englan L, Kemi O, Toussaint H. effects of specific high resistance training in the water on competitive swimmers. Journal of Strength and conditioning research – 2015. T.21. -№2, - P.646-648.; Crowley E. The impact of resistance training on swimming performance // Sport medicine – 2017. T.47.-№11, - P. 2285-2307.

Tadqiqotning obyekti sifatida Nukus shahar Respublika suv sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani sport maktabi, Nukus olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazining 14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilar bilan olib boriladigan o'quv-mashg'ulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini 14-15-yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda qo'llanilgan mashqlar majmuasi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy - uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuvlar, anketa so'rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarda suvdagi tananing gorizontol holatini tartibga solishga qaratilgan "Balans" mashqlarini qisqa masofada tezlikni oshiruvchi "Amartizator" mashqlariga yo'naltiruvchi besh bosqichli "texnologik xarita"ni ishlab chiqish hisobiga qo'llarning kuch imkoniyatini oyoq harakatlari biodinamikasiga moslashtirish uslubiyati takomillashtirilgan;

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning oyoq va qo'l mushak kuchi chidamliligini oshirishda tezkorlik, koordinatsion va kuch sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan quruqlikdagi (yotgan holda 2 kg medicine ball to'pini uzoqlikka otish, devorga mahkamlangan maxsus rezina arqonni tortish) va suvdagi (25 m masofaga maksimal tezlikda nafas olmasdan suzish, 50 m masofaga lopatka lasta yordamida yuqori tezlikda suzish, 100 m masofaga turli xil suzish usullarini almashtirib suzish) mashqlarni past, o'rta va yuqori darajalar bo'yicha me'yorlash hisobiga sportchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash imkoniyati yaxshilangan;

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati texnik harakatlarga yuqori darajada ta'sir ko'rsatuvchi qo'shimcha qarshilik va og'irlik bilan suzish mashqlarini variativ shaklda mashg'ulot sharoitida talab etiladigan murakkab reaksiya harakatlarini (suvda zigzag traektoriyasi bo'yicha murakkab harakatlarni simulyatsiya qilish) qo'llash hisobiga takomillashtirilgan;

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning zo'riqish, hissiy hayajon, stress, startdan oldingi hayajonlanish holatlarida mashg'ulot yuklamalarini musobaqa oldidan joriy va oraliq nazoratiga muvofiqlashtiruvchi yetti bosqichli "Mashqlar majmuasi"ni (suzish tezligi, harakatlar tezligi va suvni his qilish samaradorligini oshirish kabi) mashg'ulotlarda qo'llash hisobiga sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini saralash uslubiyati takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda ular organizmining o'ziga xos xususiyatlarini hamda suzish usuli va masofani hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha uslubiyati ishlab chiqilgan;

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning mashg'ulot va musobaqaoldi tayyorgarligida muhim bo'lgan oyoq va qo'l mushak kuchini

o'shinishga qaratilgan mashqlar majmuasidan o'quv-mashg'ulotlar jarayonida foydalanish samaradorligi asoslab berilgan;

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish dolzarbligi suzish sport turi bo'yicha murabbiylar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovnomasi hamda joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba davomida olingan natijalar asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi bilish nazariyasi uslubiyati hamda mamlakatimizdagi va xorijiy mamlakatlarning, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport nazariyasi amaliyoti sohasida xizmat ko'rsatgan amaliyotchi murabbiylarning ilmiy qarashlari bilan asoslangan holda, bir-birini o'zaro to'ldiradigan, tadqiqotning vazifalariga mos keladigan tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, tadqiqot natijalarining sifat jihatdan ta'minlanganligi, tadqiqot ishlari va sinovlarining oshkoraligi, tadqiqot natijalariga ishlov berishda matematik statistika uslublarining qo'llanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'tkazilgan pedagogik tajribalarda olingan natijalar asosida 14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda suvda va quruqlikda qo'llaniladigan maxsus mashqlar majmuasini ishlab chiqilganligi hamda uni qo'llash samaradorligi ilmiy isbotlanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati 14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning suvdagi tananing gorizontol holatini tartibga solish, qo'llarning kuch imkoniyatini oyoq harakatlari biodinamikasiga moslashtirish, qo'shimcha qarshilik va og'irliklar bilan suzish, mashg'ulot sharoitida talab etiladigan murakkab reaksiya harakatlarini bajarish imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha asoslangan.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Erkin usulda qisqa masofaga suzuvchi 14-15 yoshli suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarda suvdagi tananing gorizontol holatini tartibga solishga qaratilgan "Balans" mashqlarini qisqa masofada tezlikni oshiruvchi "Amartizator" mashqlariga yo'naltiruvchi besh bosqichli "texnologik xarita"si "Júziw hám oní oqítíw metodikasí" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universitetiniń 2023-jil 21-oktyabrdegi 335 D/1 sanlı buyrıǵına tiykarlanıp 335 D/1-003 sanlı ruxsatnama). Natijada, suzuvchilarning texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari 18 % ga yaxshilangan;

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning oyoq va qo'l mushak kuchi chidamliligini oshirishda tezkorlik, koordinatsion va kuch sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan quruqlikdagi va suvdagi mashqlar majmuasi Nukus shahar Respublika suv sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi yosh suzuvchilarining o'quv-mashg'ulot jarayoniga tatbiq etilgan (Qaraqalpaqstan Respublikası Sport ministriligining 2024-yil 26-martdagi 01-09/1601-son ma'lumotnomasi). Natijada, suzuvchilarning oyoq va qo'l mushak kuchi chidamkorligi 15,6 % ga oshishiga erishilgan;

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati texnik harakatlarga yuqori darajada ta'sir ko'rsatuvchi qo'shimcha qarshilik va og'irlik bilan suzish mashqlarini variativ shaklda qo'llash uslubiyati "Júziw hám oní oqítíw metodikasí" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Berdaq atindaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universitetiniń 2023-jil 21-oktyabrdegi 335 D/1 sanlı buyrıǵına tiykarlanıp 335 D/1-003 sanlı ruxsatnama). Natijada, suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari 21% ga yaxshilangan;

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini musobaqa oldidan joriy va oraliq nazoratiga muvofiqlashtiruvchi yetti bosqichli mashqlar majmuasi Qoraqalpoǵiston Respublikasi Amudaryo tumani sport maktabining o'quv mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq etilgan (Qaraqalpaqstan Respublikası Sport ministrliğining 2024-yil 26-martdagi 01-09/1601-son ma'lumotnomasi). Natijada, yosh suzuvchilarda harakatlar tezligi va suvni his qilish samaradorligi 15% oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishining umumiy xajmi 123 betni tashkil qilib, kirish, to'rtta bob, 11 ta rasm, 6 ta jadval, xulosalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchlilik, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini pedagogik nazorat qilishning ilmiy-uslubiy asoslari**" deb nomlanadi. Mazkur bobda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, suzuvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun nazorat mashqlaridan foydalanish xususiyatlari, suzuvchi sportchilarning jismoniy tayyorgarliklarini baholash muammosiga zamonaviy qarashlar, suzuvchi sportchilarning harakatchanlik qobiliyatlarini aniqlash uslublari, 14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning quruqlikda va suvda maxsus jismoniy tayyorgarligini tashkil qilish jarayonlari tahlili berilgan. Ushbu bob mazmunida suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligi tuzilishi to'g'risidagi mavjud ma'lumotlar tavsiflanadi. Ham

mahalliy, ham xorijiy mualliflarning ko‘plab tadqiqotlari suzish texnikasini takomillashtirish masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, (A.Sodiqov, A.P.Makarenko, V.B.Issurin, SV.Kolmogorov, D.F.Mosunov, V.N. Platonov) ularning katta qismi yuqori malakali suzuvchilarda sinalgan. Bunda sport maktablari uchun amaldagi dastur suzuvchilarning faqat harakat ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish usullarining umumiy tavsifi bilan cheklanib qolgan. Asosiy tayyorgarlik bosqichlarida suzish usullari texnikasining vaqtinchalik va dinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda kuch mashqlari tuzilishini har tomonlama baholash zarurati, ushbu masalaning nazariyasi va metodologiyasida yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Suzuvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda saralash ishlarini tashkil qilish hamda dastlabki mashg‘ulotlar bosqichidan boshlab suzuvchilarni tayyorlash jarayonining metodologiyasini ishlab chiqish ham masalaga biryoqlama qarash hisoblanadi (V.A.Baranov, Ye.A.Mexteleva).

Har qanday spor turida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash ularning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi birligiga erishishdan boshlanadi. V.N.Platonov, R.S.Salamov, Sh.X.Xankeldiyev, F.A.Kerimovlar asarlarida sportchilarda har tomonlama jismoniy tayyorgarlikka erishish ko‘p jihatdan trenirovka vositalari va uslublarining oqilona tanlanishi, ko‘p yillik mashg‘ulotlar jarayonida umumiy va maxsus tayyorgarlikning optimal nisbatlariga bog‘liqligini hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik samaradorligini oshirish uchun mashg‘ulot jarayonida yangicha usul va uslublar zarur ekanligini ko‘rsatganlar.

Hozirgi vaqtda erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning jismoniy tayyorgarlik imkoniyatlarini baholash uchun juda keng usullar mavjud. Xususan, suzish amaliyotiga dinamometriya, izotonik va izometrik ma‘lumotlar yordamida videoyozuv va harakatlarni keyingi tahlil qiluvchi kompyuterlashtirilgan tadqiqot dasturlari kiritilgan (V.Avdiyenko, V.Aikin, E.Absalyamova, V.Bagin, M.Bulatova). Erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligi sportchining tanasini har tomonlama rivojlantirish, uning sog‘lig‘ini mustahkamlash, harakat sifatlari va sport mahoratini oshirishga qaratilgan, Ya‘ni, suvda yuqori va doimiy oshib boruvchi yuklamalarini bajarish uchun mustahkam funksional asosni, yuqori sport natijalariga erishish uchun asosni yaratishdir.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlillari shuni ko‘rsatadiki, 14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari yetarli darajada ochib berilmagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tadqiqotning uslublari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlanib, unda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so‘rovnomasi, pedagogik kuzatuv, pedagogik-nazorat testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanganligi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, pedagogik tadqiqotning 3 ta bosqichda tashkil qilinganligi ko‘rsatib o‘tilgan:


I bosqich (2020-yil). Bu bosqichda sport maktabi yosh suzuvchilarining o‘quv-mashg‘ulot bosqichida mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirishga oid adabiyot va manbalar nazariy tahlil qilindi, me‘yoriy xujjatlar o‘rganildi, tadqiqotning maqsad va vazifalari qo‘yildi, pedagogik tajribani o‘tkazish

bosqichlari va muddatlari belgilandi, tajriba tadqiqotlarida qo'llaniladigan mashg'ulotlarni aniqlashtirish ishlari amalga oshirildi.

II bosqich (2021-yil). Ushbu bosqichda tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Tadqiqot Nukus shahar Respublika suv sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi 14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarida o'tkazildi. Tadqiqotga o'quv-mashg'ulot bosqichi suzuvchilaridan nazorat va tajriba guruhlari uchun 16 nafardan jalb qilindi. Sport maktabi murabbiylari o'rtasida so'rovnoma tashkil qilindi. Shuningdek, sport maktabi 14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarida maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantiruvchi uslubiyatni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotdan oldingi dastlabki va tadqiqotlar davomidagi umumlashtiruvchi tajribalar o'tkazildi.

III bosqich (2022-yil). Ushbu bosqich pedagogik tajriba natijalarining yakuniy xulosalariga bag'ishlandi. Unda 14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan "Suvda va quruqlikda bajariladigan maxsus mashqlar majmuasi" bo'yicha tajriba guruhi sinaluvchilari pedagogik tajribadan o'tkazildi, nazorat guruhi sinaluvchilari esa odatiy mashg'ulotlar bo'yicha shug'ullanishgan. Ishlab chiqilgan uslubiyat samaradorligi va olingan natijalarning amaliyotdagi ifodasi o'rganildi. Tajriba davomida olingan ma'lumotlar tahlil qilib borildi.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Erkin usulda qisqa masofaga suzuvchi 14-15 yoshli suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyati**" deb nomlangan. Ushbu bobda 14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan maxsus mashqlar majmuasi ishlab chiqildi va pedagogik tajribada qo'llash ketma-ketligi bo'yicha uslubiyat amalda sinaldi. Suzush sportining hozirgi rivojlanish darajasi yuqori natijalarga erishishga yuqori talablarni qo'yadi, bu esa kuch va tezkorlik qobiliyatlarining rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir (1-rasmga qarang).



1-rasm. Erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarni maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha so'rovnoma natijalari (n=20)

1-rasmdagi diagramma tahliliga ko'ra, erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda asosan qaysi jarayonga ko'proq e'tibor qaratish kerak bo'ladi? degan savolimizga 50 % murabbiylar kuch sifatini rivojlantirishga deb javob berishgan bo'lsa, 45 % murabbiylar tezkorlik sifatini rivojlantirishga, 5 % murabbiylar epchillik sifatini rivojlantirishga deb javob berishdi (1-rasmga qarang).

Erkin usulda qisqa masofaga suzuvchi 14-15 yoshli suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uchun eng qulay davr o'rta maktab yoshi hisoblanadi. Bu yoshda kuch qobiliyatlari yuqori darajada o'sadi. Suzish bo'yicha murabbiylardan 14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga nisbatan munosabatlarini aniqlashga doir anketa so'rovnoma o'tkazildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish vositalari bo'yicha so'rovnoma natijasi (n=20)

2-rasmdagi diagramma tahliliga ko'ra, erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qanday vositalardan foydalanish ahamiyatli? degan savolimizga 12 % murabbiylar qarshilik ko'rsatadigan mashqlarni, 23 % og'irliklar bilan mashqlarni, 65 % murabbiylar quruqlikda ham suvda qo'llash mumkin bo'lgan mashqlar maxsus mashqlarni ahamiyatli deb hisoblashlarini bildirib o'tishdi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan xulosa shuki, 14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda har bir murabbiy avvalo yosh xususiyatini hamda psixologik xususiyatlardan kelib chiqib mashg'ulotlarni tashkil qilishi muhim ahamiyatga egadir.

Suzish jismoniy tarbiya vositalaridan biri bo'lib, sportchining jismoniy tayyorgarligini oshirishga, uning jismoniy sifatlarining rivojlanish darajasini oshirishga katta yordam beradi. Biroq, bu erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning ko'p qirrali jismoniy tayyorgarligi uchun yetarli emas. Shuning uchun biz sport amaliyotida suvda mashq qilishdan tashqari, quruqlikda turli jismoniy mashqlar tizimidan foydalanishni tajribaviy asoslashga harakat qilamiz.

Quruqlikda mashq qilish va suvda mashq qilish, umumiy maqsadni ko'zlagan holda - erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning tanasini samarali sport musobaqalariga tayyorlash vositalari va usullari, ta'sir yo'nalishi va darajasi bilan sezilarli darajada farqlanadi. Tabiiyki, ular bir-birini to'ldirishi mumkin, lekin o'rnini bosa olmaydi. Quruqlikda mashq qilish ba'zi hollarda sportchiga umumiy tayyorgarlik jarayonining ba'zi vazifalarini to'liqroq, tez va muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradigan sharoitlarda amalga oshiriladi.

Sport amaliyotida erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning suvda va quruqlikdagi jismoniy qobiliyatini baholashning turli xil variantlari mavjud. Suvda va quruqlikda maxsus mashqlarni qo'llash orqali suzuvchilarning maksimal kuch imkoniyatlarini baholash mumkin. Erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun suvda maxsus testlardan foydalanish kerak (1-jadvalga qarang).

1-jadval

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini baholovchi me'yor mezonlari

T/r	Jismoniy sifatlar	Nazorat mashqlari	Darajalar		
			past	o'rta	yuqori
			Baho		
			3	4	5
Quruqlikdagi mashqlar					
1	Tezkorlik	yotgan holda 2 kg medicine ball to'pini uzoqlikka otish (m.)	8	10	12
		devorga mahkamlangan maxsus rezina arqonni tortish (s.) 30 soniya	30	35	40
2	Koordinatsiya	4x10 metrga mokisimon yugurish, (s.)	7,5	7,3	7,1
3	Kuch	turnikda tortilish	6	8	10
Suvdagi mashqlar					
25 m masofaga maksimal tezlikda nafas olmasdan suzish, 50 m masofaga lopatka lasta yordamida yuqori tezlikda suzish, 100 m masofaga tezlikka suzish)					
1	25 m masofaga "maksimal tezlikda nafas olmasdan" suzish (s.)		15,0	14,0	13,0
2	50 m masofaga "lopatka lasta yordamida yuqori tezlikda" suzish (s.)		24,0	22,0	20,0
3	100 m masofaga "tezlikka" suzish (daq, s.)		1:08,0	1:06,0	1:04,0

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini baholovchi me'yor mezonlarining maqsadi suzuvchilarda mushak kuchi va chidamliligini baholashdir. Bunda quruqlikdagi mashqlar tezlik, koordinatsiya va kuchni baholashga qaratiladi. Suvda 25, 50, 100 m qisqa masofalarga

suzish esa suzish tezligini baholashga qaratiladi. Ko‘rsatkichlar past, o‘rta va yuqori darajalarga bo‘linib aniqlanadi.

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishni beshta bosqichda amalga oshirish mumkin. Bunda birinchi bosqichda individual yondashuv asosida maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish vositalarini tanlanadi. Ikkinchi bosqichda musobaqaning shartlarini inobatga olgan holda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish uchun mashqlar majmuasi ishlab chiqilib, tanlanadi. Uchinchi bosqichda mashg‘ulotning tayyorlov qismida qo‘llash uchun maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantiruvchi mashqlardan foydalaniladi. To‘rtinchi bosqichda erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarda texnik mahoratning o‘shishi hisobiga maxsus jismoniy tayyorgarlikning joriy holati baholanadi. Beshinchi bosqichda erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning individual jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda maxsus jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish uslubiyati ishlab chiqiladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

“14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish”ning bosqichlari

Bosqich	Amalga oshirish mexanizmi	Pedagogik shartlar
1-bosqich: tanlash (joriy nazorat)	14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarda suvdagi tananing gorizontol holatini tartibga solishga qaratilgan “Balans” mashqlarini tanlash	individual yondashuv asosida
2-bosqich: Mashqlar majmuasini ishlab chiqish (joriy nazorat)	14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarda tezlikni oshiruvchi “Amartizator” mashqlarini tanlash	musobaqaning shartlarini inobatga olgan holda
3-bosqich: foydalanish (joriy va oraliq nazorat)	14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qo‘shimcha qarshilik va og‘irlik bilan suzish mashqlaridan foydalanish	mashg‘ulotning tayyorlov qismida
4-bosqich: baholash (yakuniy nazorat)	14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini besh bosqichli “texnologik xarita” orqali baholash	texnik mahoratning o‘shishi hisobiga
5-bosqich: takomillashtirish	14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun “Suvda va quruqlikda bajariladigan maxsus mashqlar majmuasi”ni ishlab chiqish	individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlaridan kelib chiqib, maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish uslubiyatini ishlab chiqdik. Bunda jismoniy tayyorgarlik jarayonining komponentlari tayyorgarlik bosqichlariga muvofiqlashtirildi (3-jadvalga qarang).

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyatining tuzulishi

T/r	Jismoniy tayyorgarlik jarayonining komponentlari	Tayyorgarlik bosqichlari		
		I bosqich: Suzish usuli bo'yicha tayyorgarlikni rivojlantirish	II bosqich: Suzish texnikasini takomillashtirish	III bosqich: Qisqa masofaga suzishni individual rivojlantirish
I	Jismoniy tayyorgarlik rejimlarining nisbati	Anaerob rejimdagi mashqlar 5-10%; aerobik rejimda mashqlar 60-70%; aralash rejimda mashqlar 30% gacha	Anaerob rejimdagi mashqlar 10-20%; aerobik rejimda mashqlar 50-60%; aralash rejimda mashqlar 25% gacha	Anaerob rejimdagi mashqlar 15-20%; aerobik rejimda mashqlar 45-50%; aralash rejimda mashqlar 30% gacha
II	Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotining mazmuni	Quruqlikda - umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari, faol va passiv cho'zilish mashqlari; suvda - suzish bo'yicha maxsus mashqlar	Quruqlikda - o'rta og'irlikdagi mashg'ulotlar, suvda-zarbaning ajralmas kinematik tuzilishini shakllantirish uchun mashqlar, masofaning o'rta qismlarida temp bilan suzish	Quruqlikda - harakatlarning maksimal tezligi bilan mashqlar, suvda - texnikani salqab qolish mashqlari
III	Bir haftalik suzish xajmi (km.)	15-20 km.	20-25 km.	25-30 km.
IV	Yurak qisqarishlar soni (daq.)	155-160 daqiqa	165-170 daqiqa	175-180 daqiqa
V	Jismoniy tayyorgarlik mashg'uloti uslublari	Takroriy suzish uslubidan foydalanib tanlangan usul texnikasini takomillashtirish	Suzish texnikasini vaqt oraliqida takomillashtirishning yaxlit va konstruktiv usulidan foydalanish	Qisqa vaqt oralig'ida takrorlashlar sonini maksimal oshirish orqali musobaqa sharoitiga yaqinlashtirish usulidan foydalanish

Erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligining asosiy vositasi suzishdir. Maxsus jismoniy tayyorgarlikning vazifalari umumiy jismoniy tayyorgarlik vazifalariga nisbatan aniqroq bo'lib, unda tanlangan suzish usuli yoki ma'lum masofaga eng xos bo'lgan sifat va ko'nikmalarni rivojlantirish hamda takomillashtirishga, qisqa masofaga suzish texnikasini takomillashtirishga to'sqinlik qiladigan jismoniy rivojlanishdagi individual kamchiliklarni bartaraf etishga, suzish texnikasidagi xatolarni tuzatishga qaratilgan hisoblanadi.

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyatining tuzulishi quyidagilarni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich: suzish usuli bo'yicha tayyorgarlikni rivojlantirishda jismoniy tayyorgarlik rejimlarining nisbati anaerob rejimdagi mashqlar 5-10%, aerobik rejimda mashqlar 60-70%, aralash rejimda mashqlar 30% gachani tashkil qiladi. Bunda jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotining mazmuni quruqlikda - umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari, faol va passiv cho'zilish mashqlari; suvda - suzish bo'yicha maxsus mashqlar bajariladi. Bir haftalik suzish hajmi 15-20 km oralig'ida bo'lib, yurak qisqarishlar soni 155-160 ta oralig'ida bo'ladi. Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotida takroriy suzish uslubidan foydalanib tanlangan usul texnikasini takomillashtiriladi.

Ikkinchi bosqich: erkin usulda qisqa masofaga suzish texnikasini takomillashtirishda jismoniy tayyorgarlik rejimlarining nisbati anaerob rejimdagi mashqlar 10-20%; aerobik rejimda mashqlar 50-60%; aralash rejimda mashqlar 25% gachani tashkil qiladi. Bunda jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotining mazmuni quruqlikda - o'rta og'irlikdagi mashg'ulotlar, suvda-zarbaning ajralmas kinematik tuzilishini shakllantirish uchun mashqlar, masofaning o'rta qismlarida temp bilan suzishlar bajariladi. Bir haftalik suzish hajmi 20-25 km oralig'ida bo'lib, yurak qisqarishlar soni 165-170 ta oralig'ida bo'ladi. Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotida suzish texnikasini vaqt oralig'ida takomillashtirishning yaxlit va konstruktiv usulidan foydalaniladi.

Uchinchi bosqich: qisqa masofaga suzishni individual rivojlantirishda jismoniy tayyorgarlik rejimlarining nisbati anaerob rejimdagi mashqlar 15-20%; aerobik rejimda mashqlar 45-50%; aralash rejimda mashqlar 30% gachani tashkil qiladi. Bunda jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotining mazmuni quruqlikda - harakatlarning maksimal tezligi bilan mashqlar, suvda - texnikani salqab qolish mashqlari bajariladi. Bir haftalik suzish hajmi 25-30 km oralig'ida bo'lib, yurak qisqarishlar soni 175-180 ta oralig'ida bo'ladi. Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotida qisqa vaqt oralig'ida takrorlashlar sonini maksimal oshirish orqali musobaqa sharoitiga yaqinlashtirish usulidan foydalaniladi.

Erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish sportchining individual xususiyatlariga va hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalardan kelib chiqadi. Bu jarayonda mashg'ulot yuklamalarini musobaqa oldidan joriy mikrosikl va oraliq mezosikl nazoratiga muvofiqlashtiruvchi mashqlar majmuasidan foydalanish yaxshi samara beradi (4-jadvalga qarang).

14-15 yoshli erkin usulda qisqa masofaga suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha mashqlar majmuasi

Bosqich	Mashqlarni yo'naltirish	Mashqlar	Me'yor	Takrorlash soni	Shiddat zonasi	Dam olish vaqti
I	Qadam uzunligini yaxshilash	<ul style="list-style-type: none"> - kam miqdordagi yuklamalar bilan suzish (muvofiglikda va qo'llar yordamida); - suzish masofasiga ma'lum miqdordagi yuklamalar bilan suzish (muvofiglikda va qo'llar yordamida); - bir qo'l bilan qarshilikni yengib suzish; - yuklamalarga ko'nikkan holda suzish; - kam miqdordagi yuklamalar bilan qanotlarda suzish; - raqibni quvib o'tish bilan suzish. 	25 m. 50 m. 100 m. 50 m. 100 m. 50 m.	15 marta 10 marta 5 marta 10 marta 5 marta 15 marta	IV-V IV-V III IV-V III IV-V	1 daq. 1-2 daq. 1-2 daq. 1-2 daq. 1-2 daq. 1-2 daq.
II	Suzish tezligini oshirish	<ul style="list-style-type: none"> -yuqori start bilan suzish; - berilgan miqdordagi yuklamalar bilan suzish; - yuqori tezlikda suzish; - estafeta poygalari bilan suzish. 	25 m. 50 m. 50 m. 100 m.	20 marta 15 marta 15 marta 5 marta	IV-V IV-V IV-V III	1 daq. 1-2 daq. 1-2 daq. 1-2 daq.
III	Harakatlarning tezligini oshirish	<ul style="list-style-type: none"> - qadam uzunligini doimiy oshirib borish bilan suzish; - maksimal tezlikda suzish (turli xil suzish usullarini almashinish bilan); - ko'tarilgan bosh bilan suzish. 	50 m. 100 m. 100 m.	15 marta 5 marta 5 marta	IV-V III III	1-2 daq. 1-2 daq. 1-2 daq.
IV	Suvni his qilish samaradorligini oshirish	<ul style="list-style-type: none"> - quruqlikda va suvda zigzag traektoriyasi bo'yicha harakatlarni simulyatsiya qilish; -musht bilan suzish; - turli shakldagi belkuraklarda suzish; - o'zgarishlar qilish bilan suzish; - arqonni yuqoriga tortib suzish. 	100 m. 50 m. 50 m. 100 m. 50 m.	20 marta 15 marta 15 marta 5 marta 10 marta	III IV-V IV-V III IV-V	1-2 daq. 1-2 daq. 1-2 daq. 1-2 daq. 1-2 daq.
V	Suvdagi tananing gorizontal holatini tartibga solishni takomillashtirish	<ul style="list-style-type: none"> - qo'llarning turli pozitsiyalari bilan oyoqlar yordamida suzish (ko'krakda, orqada, yon tomonda); - qo'lning turli holatida qanotlarda suzish; - suv osti trubkasi bilan suzish; - har xil qo'shimcha qarshiliklar bilan suzish; - turli tayanch vositalari (belbog'lar, doiralar, manjetlar, taxtalar) bilan suzish. 	100 m. 50 m. 25 m. 50 m. 25 m.	5 marta 15 marta 20 marta 15 marta 20 marta	III IV-V IV-V IV-V IV-V	1-2 daq. 1-2 daq. 1 daq. 1-2 daq. 1-2 daq.
